MUSIQIY IDROK TUSHUNCHASINING GENEZISI: TARIXIY-NAZARIY JIHATLARI

https://doi.org/10.70728/orien.v07.i04.039

Mirsidikova Sevara Atxamovna
sevaramirisidikova98@gmail.com
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqiy idrok tushunchasining genezisi tarixiy-nazariy tahlil prizmasi orqali ko‘rib chiqiladi. Musiqani idrok etish haqidagi tasavvurlar evolyutsiyasi - uyg‘unliklarning son nisbatlari haqidagi antik ta’limotlardan tortib, san’atning ijtimoiy-axloqiy vazifasigacha, idrokni murakkab kognitiv faoliyat sifatida talqin etuvchi zamonaviy konsepsiyalargacha kuzatiladi. Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlari (Al-Forobiy, Ibn Sino, Al-Urmaviy) musiqaning psixologik va estetik ta’sirini tizimlashtirganliklariga alohida e’tibor qaratiladi, Yevropa falsafiy an’analarining yondashuvlari va ularning musiqiy idrokni intellektuallashtirishdagi o‘rni o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida musiqiy idrokning ko‘p bosqichli tabiati, murakkab va ijodiy jarayon sifatida, sensor, kognitiv va madaniy-ma’naviy komponentlarni o‘zida mujassamlashtirishi, bu esa uning zamonaviy musiqashunoslik va musiqa ta’limi uchun fundamental ahamiyatini belgilashi haqidagi xulosa kelib chiqadi.

Kalit so‘zlar: musiqiy idrok; musiqashunoslik; musiqa falsafasi; kognitiv faoliyat; estetika; qadimgi musiqa nazariyasi; Sharq musiqiy an’anasi; Al-Farobiy; Ibn Sino; Al-Urmaviy; Yevropa musiqa falsafasi; musiqiy tafakkur; musiqiy psixologiya

THE GENESIS OF THE CONCEPT OF MUSICAL PERCEPTION: HISTORICAL AND THEORETICAL ASPECTS

Mirsidikova Sevara Atxamovna
sevaramirisidikova98@gmail.com
Uzbekistan State Conservatory

Abstract: This article examines the genesis of the concept of musical perception through the lens of historical and theoretical analysis. It traces the evolution of ideas about music perception, from ancient teachings on the numerical relationships of consonances and the social and moral functions of art to modern concepts that interpret perception as a complex cognitive activity. Particular attention is given to the contributions of Eastern Renaissance thinkers (Al-Farabi, Ibn Sina, and Urmawi), who

(cc) BY

systematized the psychological and aesthetic impact of music. Approaches within the European philosophical tradition and their role in the intellectualization of musical perception are explored. The study concludes by affirming the multi-layered nature of musical perception as a complex and creative process integrating sensory, cognitive, and cultural-semantic components, which determines its fundamental significance for modern musicology and music education.

Keywords: musical perception, musicology, philosophy of music, cognitive activity, ancient music theory, Eastern musical tradition, al-Farabi, Ibn Sina, Al Urmawi, European philosophy of music, musical thinking, musical psychology

Musiqiy idrok muammosi falsafa, estetika, psixologiya va musiqashunoslik fanlari tutashgan joyda shakllangan ilmiy tafakkurning uzoq evolyutsiyasi natijasi sifatida qaraladi. Musiqiy idrok zamonaviy fanda tovush voqeligining sof sensor (hissiy) ifodalanishidan tashqariga chiqadigan, fikrlash faoliyatining o‘ziga xos shakli sifatida namoyon bo‘ladigan murakkab, ko‘p bosqichli jarayon sifatida talqin etiladi. Bunday tushunish tadqiqotlarning fanlararo tabiati bilan bog‘liq bo‘lib, uning doirasida musiqa axborotni tashkil etish va qayta ishlashning o‘ziga xos usuli sifatida tushuniladi. Musiqashunoslik nuqtai nazaridan, musiqiy idrok musiqiy asarga xos bo‘lgan ma’nolarni badiiy hodisa sifatida idrok etish va izohlashga qaratilgan bo‘lsa, psixologiya fani idrokning tafakkur, xotira, e’tibor va tasavvur bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Shu munosabat bilan musiqiy idrokning ijodiy xarakteri to‘g‘risidagi yondashuv juda muhimdir. A. Soxor ta’kidlaganidek, “har bir inson o‘zining ozmi-ko‘pmi yaqqol ifodalangan individual-psixologik xususiyatlari va turli xil hayotiy tajribasiga ega bo‘lganligi sababli, uning tasavvuri asarni idrok etishda kompozitor yaratgan obrazning o‘zining subyektiv bo‘yalgan, ma’lum ma’noda yangi “variantini” yaratadi” [1]. Ushbu nuqtai nazar idrokni tinglovchining badiiy ma’no yaratishga hissa qo‘shadigan faol talqin jarayoni sifatida tasavvur qilishimizga imkon beradi.

Musiqiy idrokning kelib chiqishini qadimgi falsafadan izlash mumkin. Musiqiy idrok fenomeni haqidagi dastlabki konseptual qarashlar Pifagor, Geraklit, Demokrit, Platon, Aristotel va Aristoksen kabi qadimgi mutafakkirlar asarlarda uchraydi. Ular musiqaning estetika va etikasiga e’tibor qaratishdi, idrokning ijtimoiy elementlarini o‘rganishdi va tovushni hissiy idrok etish g‘oyasinisini taklif qilishdi. Shuningdek, miloddan avvalgi VI-V asrlarda yashagan eng mashhur yunon olimlaridan biri Pifagor matematika, astronomiya, falsafa va musiqani ilmlar bilan chuqur tarzda shug‘unlangan. U va uning shogirdlari, pifagorchilar, ohangdoshlarning sonli nisbatlarini aniqlash asosida musiqa nazariyasini o‘rgandilar. “Garmoniyani o‘zlashtirganda, Pifagorchilar tovushlardagi sifat farqlari torlar yoki naylar uzunligidagi miqdoriy farqlar bilan bog‘liqligi bo‘yicha xulosa qilishdi. Masalan, agar

(cc) BY

torlar uzunligi 1: 2; 3: 2; va 4: 3, ya'ni ohanglardagi farq oktava, kvinta yoki kvarta bo‘ladi, musiqiy intervallar yoqimli (konsonant), boshqa hollarda esa yoqimsiz (dissonant) bo‘ladi" [2, 67].

Yana bir qadimgi yunon mutafakkiri "Hamma narsa oqadi, hamma narsa o‘zgaradi" hikmatli so‘zining muallifi Geraklit, musiqiy garmoniya mavhum raqamlar va matematik hisob-kitoblardan iborat emas, balki tovushning tinglash tajribasi orqali tan olinadi, deb tasdiqlagan. Dalillarga ko‘ra, aynan Geraklit birinchi bo‘lib "musiqani idrok etish" tushunchasini qo‘llab, go‘zallikning qadriyatli jihati, go‘zallik va garmoniyani idrok etishda albatta baholash lahzasi mavjudligi, ya'ni idrok etishning bilish xususiyati haqidagi taxminni ta'kidlagan [3, 67].

Aristotel va Platonning ta'limotlarida musiqaning estetik tabiati masalalari bayon etiladi, eshitish idrokining tipologiyasi belgilanadi. Platon Pifagorchilarning g‘oyalarini rivojlantirib, musiqa va astronomiya "xuddi tug‘ishgan opa-singillardek" ekanligini ta'kidladi: "bizning ko‘zlarimiz astronomiyaga qaratilganidek, quloqlarimiz ham uyg‘unlashtirilgan ohanglar harakatiga qaratilgan". Platon falsafasida musiqa geometriya, arifmetika, musiqa va astronomiyani o‘z ichiga olgan kvadriviumning bir qismi hisoblanadi demak, u dunyo tuzilishining asoslari bilan bog‘liq. Musiqani idrok etish olam birligini anglashga va donishmandlikni shakllantirishga yordam beradi Aristotel, Platondan farqli o‘laroq, musiqani falsafa va matematika bilimlari bilan bir qatorda har bir inson uchun zarur bo‘lgan umumiy ta'lim fani sifatida tan olgan. U musiqiy va falsafiy ta'limni jismoniy tarbiya bilan uyg‘unlashtirib, shaxsning barkamol rivojlanishini ta'minlashi kerakligini ta'kidladi.

Aristoksenga ko‘ra antik estetikaning asosiy tushunchalaridan biri tovushni hissiy idrok etish yondashuvi bo‘lib, u musiqani idrok etish muammosini o‘rganish uchun keng imkoniyatlarni ochdi [4, 9].

Shu bilan birga, qadimgi Xitoyda musiqiy idrokning ijtimoiy va axloqiy vazifalari to‘g‘risida g‘oyalar shakllandi. Konfutsiy musiqaning tarbiyaviy ahamiyatini ta'kidlab, uni axloq va ijtimoiy tartibni shakllantirishning kuchli vositasi sifatida tan olgan. "Syaoszin" risolasida u shunday ifodalagan: "hech narsa musiqa kabi axloqni o‘zgartira olmaydi va jamiyatni samarali boshqara olmaydi" [5, 145]. Shu nuqtai nazardan, musiqiy idrok nafaqat estetik jarayon sifatida, balki insonning qadriyatlarni shakllantiradigan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon sifatida ham paydo bo‘ladi.

Bu jihatdan ham o‘zbek musiqa madaniyati bebaho ilmiy qadriyatlar xazinasidir. Forobiy (870-950), Xorazmiy (X asr), Ibn Sino (980 -1037) lar Sharq Uyg‘onish davrining qomusiy allomalari va ayni chog‘da musiqiyshunoslik ilmining asoschilari ekanligini jahon ahli e'tirof etadi. Ularning musiqiy sohadagi ilmiy qarashlari umumiy universal xarakterga ega. Lekin ana shu umumiylik tarkibidagi nazariy qarashlarga mos keladigan dalillarning ko‘pchiligini bizning bugungi jonli musiqiy merosimiz namunalaridan topishimiz mumkin. Ayniqsa, bizning maqomot udumlarining o‘q

(cc) BY

ildizlari, aynan shu ustoz musiqashunoslar merosidan ozuqa olayotganligining o‘zini juda muhim tarixiy voqelik deyishga arziydi [6].

Musiqa san’atining fan sifatida shakllanishi va rivojlanishida falsafa, mantiq, tabiatshunoslik va aniq fanlar rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan buyuk arab-musulmon mutafakkiri va qomusiy olimi Abu Nasr Muhammad Al - Forobiy (870-950) alohida o‘rin tutadi. Abu Nasr Al-Forobiyning musiqiy-nazariy merosining ko‘lami va ahamiyati uni o‘z davrining olimlari orasida ajratib turadi. U musiqaga oid bir qator asarlar muallifi, jumladan “Ritmlar kitobi” (“Kitob al-’iqoat”), “Ritmlar tasnifi haqida kitob” (“Kitob ’ixsa’ al-’iqoat”), “Fanlarning tasnifi haqida kitob” (“Kitob ’ixsa’ al-’ulum”), “Fanlarning kelib chiqishi haqida” (“’Asl al-’ ulum”) va boshqalar. Al-Forobiy musiqashunoslik tarixiga “Katta musiqa kitobi” - “Kitob al-musiqa al-kabir” risolasida birinchi tizimli ta’limotning yaratuvchisi sifatida kirgan [7, 6].

Al-Forobiy matematik, falsafiy va psixologik yondashuvlarni birlashtirgan holda musiqaning tizimli nazariyasini ishlab chiqdi. U musiqani nazariy va amaliy toifalarga ajratdi, uning tuzilishida garmoniya va ritm uslubiyotini ta’kidladi hamda interval va ladlarning toifalarini yaratdi. Forobiyda nafaqat bilimning umumiy tizimi (“nazariy san’at”) va “borliq turi” (“fikrlovchi shakl”) ning bir qismi sifatida, balki asosiy bo‘limlari lad, ritm, musiqa asboblari va musiqaning so‘z bilan uyg‘unligi (kompozitsiyaning o‘zi) nazariyasi bo‘lgan “ohanglar kompozitsiyasi” (ta’lif al-’alxon) san’ati sifatida ham talqin etiladi [7, 187]. Farobiy birinchilardan bo‘lib musiqaning psixologik ta’sirini tizimli ravishda o‘rganib chiqib, musiqiy tuzilmalar, pardalar va ritmlar tinglovchining hissiy holati va ichki dunyosiga qanday ta’sir qilishini tahlil qildi. Shunday qilib, uning asarlarida musiqiy idrok tovush shakli va inson ongi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayoni sifatida qaratiladi. Uning lotin tiliga tarjima qilingan g‘oyalari O‘rta asrlar va Uyg‘onish davridagi Yevropa musiqa nazariyotchilariga ta’sir ko‘rsatdi.

Ibn Sino musiqa fanida tabiy-ilmiy yondashuvni rivojlantirib, musiqaning estetik ta’siri haqidagi tushunchasini chuqurlashtirdi. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, musiqiy garmoniyani idrok etish nafaqat ichki xissiyot yordamida, balki qalbning “farqlovchi kuchi” bilan ham amalga oshiriladi. Musiqiy idrok deganda vaqt o‘tishi bilan yuzaga keladigan va hissiy holatlarning murakkab dinamikasini o‘z ichiga olgan jarayon tushuniladi. Ibn Sinoning fikricha, musiqa ruhiy holatni bevosita ifodalay oladi va tinglovchining ichki dunyosiga ham xuddi shunday bevosita ta’sir ko‘rsatadi, bu fikr esa uni musiqiy tafakkurning hissiy va intonatsion tabiati haqidagi zamonaviy yondashuv bilan uyg‘unlashtiradi.

Sharq musiqa nazariyasi va amaliyotida yuksak darajali yutuqlarga erishgan Safiuddin Urmaviy o‘zining “Risalatush-Sharafiyya” (“Sharafli risola”) va “Kitabul-advar” (“Musiqa va ritm doiralari kitobi”) asarlari Sharq musiqa nazariyasi taraqqiyoti tarixida aloqida o‘rin tutadi [8,19]. “Ilmi advor” (“doiralar ilmi”) talimotining asoschisi

(cc) BY

Urmaviy o‘z asarlarida birinchi bo‘lib “O‘n ikki maqom” (“Duvozdah maqom”) ta’limotini tizimlashtirdi va sharq nota namularini ishlab chiqdi. Urmaviyning asarlari musiqaning miqdoriy tahlil qilish uchun eng muhim tarixiy manba va uslubiy asos sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ularda musiqa san’atining intervallar, tovushqatorlar nazariyasi, kompozitsiya tamoyillari, ritmik tashkil etilishi va matematik asoslari tizimli ishlab chiqilgan bo‘lib, bu musiqani qat’iy ilmiy fan sifatida tushunishni aks ettiradi.

Ushbu nazariyaning keyingi rivojlanishi va ravnaqi Abdulqodir Marog‘iy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, u advor ta’limotini Sharq va jahon musiqa tafakkuriga ta’sir ko‘rsatgan yaxlit musiqiy-nazariy tizim darajasiga ko‘tardi.

Shu bilan birga Sharq musiqiy-nazariy tasavvurlarini umumevropa an’analari bilan bog‘laydigan intellektual yo‘nalishi shakllanaditirdi, bu yerda musiqa dunyoning garmonik tuzilishining universal tamoyili sifatida ham tushuniladi. Shu nuqtai nazardan, antik davr va o‘rta asrlar o‘rtasida bog‘lovchi bo‘lib xizmat qilgan Severin Boesiyning yondashuvi e’tiborga loyiq: u musiqaning uch turini - “dunyoviy”, “insoniy” va “instrumental” turlarni ajratib ko‘rsatib, ruh va tananing holati musiqiy garmoniyaning asosida yotgan bir xil nisbatlarga bo‘ysunishini ta’kidlagan.

Yevropaning o‘rta asrlar va ilk Uyg‘onish davrida musiqiy idrokning rivojlanishi musiqiy notatizimi va pedagogikaning shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan edi. Shunday qilib, Gvido d’Aresso: “Kim qo‘shiqchi emas, balki musiqachi bo‘lishni istasa, ho‘kiz kabi bo‘kirmasligi, balki boshqalarga musiqani o‘rgatishi va parda(lad)larni bilish lozim” [9, 9]. Ushbu g‘oya muhim siljishni aks ettiradi: musiqiy idrokni o‘rganish, musiqiy matoning tarkibiy elementlarini ongli ravishda o‘zlashtirish natijasida ko‘rib chiqa boshlandi. Notatsiyaning kiritilishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri eshitish tajribasidan uning intellektualizatsiyasiga o‘tishni osonlashtirdi, bu esa musiqiy idrokning kognitiv imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

Yevropa musiqashunosligi 18-19-asrlarda klassik nemis falsafasi (I. Kant, J. Fichte, F. Shelling, G. Gegel) va Vena kompozitsiya maktabining (J. Gaydn, V. Motsart, L. Betxoven) sintezi sifatida rivojlangan. Bu davrda musiqaning mavqei sifat jihatidan o‘zgarib, “hissiyotlar bilan o‘yindigan” yordamchi san’atidan (I. Kant) borliq mohiyatini ifodalashning eng yuqori shakli sifatida tan olinishga (Artur Shopengauer) aylandi. Ushbu bosqich musiqani talqin qilishning “metafizik” (kontinental) va “empiric” (ingliz) ikki vektorining yakuniy shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Kontinental an’anasi (Shelling, Gegel) musiqani borliqning murakkab ma’nolarini ifodalash shakli va falsafiy fikrlashning alohida usuli sifatida ko‘rib, Platonning yo‘nalishini davom ettiradi. Bunga qarama-qarshi ravishda, ingliz empiriklari (Bekon, Xobbs) tomonidan musiqani asosan hissiy zavqlanish sohasi sifatida qaraladi. Bunda Gegelning musiqani ratsionalizatsiya qilishi va Fridrix

(cc) BY

Nitsshening musiqani intuitiv-irratsional tabiati ekanligi haqidagi fiklar o‘rtasida ichki ziddiyat yuzaga keladi.

Umuman olganda, mazkur davr musiqani oqilona va hissiy asoslarni o‘zida mujassam etgan (Gotfrid Leybnits) dunyoni ifodalash va bilishning universal usuli sifatida tushunishga o‘tishni anglatadi, bu esa keyinchalik musiqiy idrokni murakkab intellektual-hissiy jarayon sifatida keyingi anglash uchun asos yaratadi [10, 95-99].

Aynan mana shu kontekstda XX asrda, eng avvalo, intonatsiya nazariyasida (B.V. Asafyev) amalga oshirilgan musiqani idrok etishning tubdan yangi darajasiga o‘tish mumkin bo‘ladi. Agar XVIII-XIX asr falsafasida musiqa yo borliqning metafizik asoslarining ifodasi, yo hissiy-empirik hodisa sifatida talqin qilinsa, intonatsiya nazariyasida ularning sintezi yuzaga keladi: musiqa tovush shakli bevosita ma’no bilan bog‘langan intonatsion fikrlash jarayoni sifatida tushuniladi. Shunday qilib, intonatsiya hissiy va ong, tovush va ma’no o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradi.

Tarixiy rivojlanish mantig‘i doirasida intonatsion nazariyasi aslida musiqa g‘oyalarining ko‘p asrlik evolyutsiyasini yakunlaydi: uni kosmik uyg‘unlik sifatida tushunishdan (antik davr), idrokni psixologizatsiya va estetiklashtirish orqali (Sharq Uyg‘onish davri, O‘rta asrlar va Yangi davr), musiqani idrok etish harakatida amalga oshiriladigan ma’no shakllanishning dinamik jarayoni sifatida tushunishgacha. Shunday qilib, intonatsion kontseptsiya doirasida musiqiy idrok etish passiv aks ettirish yoki subyektiv kechinma sifatida emas, balki musiqiy tafakkur nazariyasini yanada rivojlantirish uchun tubdan muhim bo‘lgan badiiy va kognitiv faoliyatning faol shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Musiqashunoslikning keyingi rivojlanish bosqichlarida musiqiy idrok tushunchasi asta-sekin mustaqil ilmiy kategoriya maqomini oladi. Zamonaviy musiqashunoslik an’analarida V. Medushevskiyning “adekvat idrok etish” tushunchasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unga ko‘ra idrok “matnni madaniyatning musiqiy-lingvistik, stilistik va ma’naviy-qadriyatli tamoyillari asosida o‘qishga” qaratilgan murakkab ruhiy faoliyat harakatidir [11,143].

Ikki yarim ming yildan ziyod vaqt davomida musiqiy idrok etish muammosi faylasuflar, olimlar va musiqachilar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda, ilmiy tafakkur esa kosmologik va metafizik modellardan psixologik va estetik konsepsiyalargacha bo‘lgan murakkab evolyutsiyani namoyon etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, musiqani idrok etish insonning o‘zini, uning ichki dunyosini bilish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu muammoga nafaqat nazariy, balki muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shunday qilib, musiqiy idrokning zamonaviy tushunchasi falsafiy, psixologik va musiqashunoslik yondashuvlari kesishmasida shakllanib, uning ko‘p qatlamli va dialektik tabiatini aks ettiradi. Musiqiy idrok nafaqat badiiy ma’noni anglash usuli, balki insonning ichki dunyosi ochib beriladigan kognitiv faoliyatning alohida shakli

(cc) BY

sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu uning musiqashunoslik nazariyasi uchun ham, musiqa ta’limi amaliyoti uchun ham asosiy ahamiyatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сохор А. Музыка как вид искусства. - М.: Госмузиздат, 1961. - 133 с.

2. История математики с древнейших времен до начала XIX столетия: в 3 т. - М.: Наука, 1970. - Т. 1. - 351 с.

3. Хогарт В. Анализ красоты. - М., Л.: Искусство, 1958. - 278 с.

4. Исаева С. От восприятия музыки к музыкальному восприятию: историко-культурный контекст. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата культурологии. - Саранск 2005. - с. 20.

5. Музыкальная эстетика стран Востока. - М.: Музыка, 1967. - 415 с.

6. Матёкубов О. Узбек мусикаси. - Тошкент, 2018. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/sanat/otanazar-matyoqubov-uzbek-musiqasi/.

7. Даукеева С. Концепция музыкальной науки Абу Насра Мухаммада ал-Фараби в трактате "Большая книга музыки. - Диссертация соискание учёной степени кандидата искусствоведения. Москва, Московская государственная консерватория им. Чайковского, 2000. - с. 380

8. Ражабов И. Мақомлар. - Тошкент: Санъат нашриёти, 2006 - 404 б.

9. Рева В.П. Р32 Восприятие музыки: историко-эстетический аспект: Пособие. - Могилев: МГУ им. А. А. Кулешова, 2001. - 30 с.

10. Курашов В. История и принципы философии музыки: от слова к музыке и от музыки к слову // Ученые записки Казанского университета. - Том 154, кн. 1. Гуманитарные науки. - 2012. - с.83-109.

11. Медушевский В.В. О содержании понятия «адекватное восприятие» // Восприятие музыки. - М.: Музыка, 1980. - с.141-145.

(cc) BY